



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№7(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 436 sahifa,
1-iyul, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyuu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

| | |
|--|----|
| Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarning milliy qadriyatlarga oid tasavvurlarini shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari..... | 10 |
| Davlatnazarova Ziyodabonu Muxtor qizi | |
| Talabalarning xulqidagi devyatsiya darajasining yuqorilab ketishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar..... | 16 |
| Ergashev Jo'rabek Xalilovich | |
| Zo'rvonlikka uchragan bolalarni va ularning oilalarini zo'rvonlikdan himoya qilishning normativ-huquqiy va ijtimoiy-psixologik asoslari..... | 19 |
| Ergasheva Gullolaxon Nosirjon qizi | |
| Tinglab tushunish kompetensiyasining psixolingvistik va pedagogik asoslari..... | 24 |
| Jonbo'tayeva Maxarramxon | |
| O'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasining kasbiy kompetentlik tizimidagi o'рни..... | 27 |
| Kutliyeva Feruzaxon Yusupovna | |
| Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ijtimoiylashuvini ta'minlashga xizmat qiluvchi zamonaviy kompleksni rivojlantirish..... | 31 |
| Yunusov Mirsaid Xudayarovich, Istamova Sevdo Ashirqul qizi | |
| Elektr tizimlari dinamik barqarorligini STEAM va Spiral (Regressus, Progressus) metodlari asosida o'qitish..... | 35 |
| Safarov Xoliyor Sayyid Safar o'g'li | |
| O'quvchilarda badiiy-estetik did va dizaynerlik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi..... | 39 |
| Norbutayeva Dilafuz Abdurasulovna | |
| Talabalarda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari va uning ta'lim sifatiga ta'siri..... | 43 |
| Rahimova Nazokatxon Kasimjonovna | |
| Model for Improving Students' Professional Competencies Based on Motivational Learning Approach..... | 49 |
| Alibekova Mahzuna | |
| Bo'lajak tarix o'qituvchilarining tarixiy tafakkurini shakllantirishning tuzilmasi va pedagogik komponentlari... 54 | 54 |
| Djumaniyazov Farxod Ulugbekovich | |
| Yengil atletika bilan shug'ullanuvchi 14-16 yoshli sportchi qizlarda mashg'ulotlar davomiyligi..... | 59 |
| Oralova Bibixol Husniddin qizi, G'ulomova Maftuna Sayfulla qizi | |
| Boshlang'ich ta'limda ingliz tilini o'yinlar orqali o'rgatish..... | 64 |
| Ruzmetova D. A. | |
| Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisining axloqiy faoliyatini shakllantirishda pedagogik vositalarning imkoniyatlari..... | 68 |
| Saydanova Dilafuz Sadirdinovna | |
| Xorijiy tajribalar va zamonaviy yondashuvlar asosida tyutorlar kasbiy salohiyatini rivojlantirishda malaka oshirish tizimini takomillashtirish..... | 75 |
| Ubaydullayev Zuxriddin Botirovich | |
| Effective Classroom Activities for Developing Speaking Skills Among EFL Learners..... | 79 |
| Akhmatova Munisa Orif qizi | |
| Xalqaro va milliy baholash dasturlarini hisobga olgan holda boshlang'ich ta'lim mazmunini yangi ta'lim trendlari bilan boyitish..... | 86 |
| Gulmira Abdullayeva, Egamberganova Yorqinoy Ollobergan qizi | |
| Ijtimoiy tarmoqlarning shaxs identifikatsiyasiga ta'sirining ijtimoiy-psixologik omillari..... | 90 |
| Tojiboyeva Nodiraxon Tursunaliyevna | |
| Analysis of the Methodology for Developing Students' Creative Thinking Competence Using Artificial Intelligence Tools Based on STEAM Educational Technologies..... | 94 |
| Tursunaliyeva Nazokat Tokhir qizi | |



| | |
|---|-----|
| Oliy ta'lim muassasalarida e-Portfolio ma'lumotlarini markazlashmagan tarzda boshqarishning afzalliklari va muammolari | 102 |
| <i>Yusupova Dono Adambayevna, Jalolov Tursunbek Sadriddinovich</i> | |
| Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining inklyuziv-tolerantlik haqidagi qarashlari tahlili | 110 |
| <i>Amangeldiyeva Adolat Ravshanbek qizi</i> | |
| Maktabgacha yoshdagi bolalarni savod o'rgatishga tayyorlashning samarali shakl, metod va didaktik vositalari | 115 |
| <i>Go'zal Qurbonova</i> | |
| Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda hayot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishning dolzarb pedagogik masalalari..... | 121 |
| <i>Muratova Munavvar O'rol qizi</i> | |
| Tarkibida toponimlar mavjud maqol va matallarning lingvomadaniy xususiyatlari va ularni o'qitishning lingvodidaktik asoslari..... | 126 |
| <i>Usmonova Zamira Jaxongirovna</i> | |
| Psixologik-pedagogik tadqiqotlarda tassavur fenomenologiyasi | 130 |
| <i>Axmedova Shaxlo Shoxob qizi</i> | |
| Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi (haykaltaroshlik san'ati misolida)..... | 133 |
| <i>Panayeva Maloxat Muminovna</i> | |
| Взаимосвязь склонности к сравнению внешности, интернет-зависимости и уровня притязаний у студентов-юношей | 136 |
| <i>Багдасарова Диана Левоновна</i> | |
| Роль каракалпакской народной национальной музыки в формировании духовно-нравственных качеств учащихся | 141 |
| <i>Зарымова Турсынай Бердибай кызы</i> | |
| A Review of the Literature on Stem Cells in Dentistry | 145 |
| <i>Ruziyeva Kamola Akhtamovna</i> | |
| Bolalar musiqa va san'at maktablarida estrada san'atini o'qitish masalalari (gitara cholg'usi misolida) | 150 |
| <i>Abdullayev O'tkir Sadullayevich</i> | |
| Talabalarda innovatsion kasbiy kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalari | 154 |
| <i>Avezov Davronbek Soburovich</i> | |
| O'zbek xalq pedagogikasi an'alarining zamonaviy ta'lim tizimidagi transformatsiyasi | 158 |
| <i>Erkaboyeva Nigora Shermatovna</i> | |
| Texnika va iqtisodiyot yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari talabalarida ingliz tilini mustaqil o'rganishning psixologik-pedagogik xususiyatlari | 163 |
| <i>Mamatqodirova Gulnigor Rustamjonovna</i> | |
| Yangi dunyoviy tartibotning shakllanishi jarayonida siyosiy taraqqiyot barqarorligi va xavfsizligini ta'minlash muammolari | 168 |
| <i>Nazarov Alisher Narimanovich</i> | |
| Ota-onasiz tarbiyalanayotgan o'smir o'g'il bolaning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari..... | 171 |
| <i>Qodirov Jahongir Neymat o'g'li</i> | |
| Kutubxona muhitida talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishning innovatsion modellari..... | 176 |
| <i>Qosimova Xolida Nabiyevna</i> | |
| Jismoniy imkoniyati cheklangan maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy harakatli o'yinlar orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish | 179 |
| <i>Raxmatullayeva Durdona Fazliddin qizi</i> | |
| Personalized Approach to the Treatment of Generalized Periodontitis in the Prediction of Cardiovascular Complications Based on Salivary Proteomic Profiling..... | 182 |
| <i>Shodiev O. U., Nazarova N. Sh., Agababayan I. R.</i> | |
| O'smirlarda irratsional ustanovkalar shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari | 187 |
| <i>Toshboltayeva Nodira</i> | |
| Роль интерактивного лингвокультурологического пространства в формировании лингвокультурной компетенции студентов национальных групп филологических направлений..... | 191 |
| <i>Рустамова Ферузахон Махмуджановна</i> | |

| | |
|-------------------------------------|---|
| MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS | Talabalarining darsdan tashqari vaqtda mustaqil ravishda jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishini shakllantirish 196 Dusanov Shuxrat Abdiraakovich |
| | Kutubxona muhitida talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishning innovatsion modellari 201 Qosimova Xolida Nabiyeva |
| | Jismoniy tarbiya darslarida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik kompetensiyasini takomillashtirish mexanizmlari 205 Xoliqnazarov Azamat Begaliyevich |
| | Oliy ta'lim talabalarida kreativ fikrlashni fanlararo integratsiya asosida shakllantirish 209 Allanazarova Dilobar Baxromovna |
| | "Alpomish" dostonida obrazlar nutqidagi pedagogik qarashlar 213 Boboqulova Aziza Adizovna |
| | Researching the Biochemistry and Physical Chemistry of Oral Fluid in Kids Who Are Acting Strangely 217 Eraliyeva Zulfiya Makhmudovna, Buzrukhoda Javohir |
| | Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini mikro matnlarni o'qitishga qaratilgan kognitiv metodlar 222 I. Matrasulova |
| | Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirishda raqamli didaktik vositalardan foydalanish metodikasi 225 Komilova Dilnozaxon Abdulhayevna, Xoliqova Mubinabonu Jamoliddin qizi |
| | Oliy ta'lim muassasalarida onomastik leksikani lingvokulturologik yondashuv asosida o'qitishning strategik-metodik asoslari 229 Mamatqulova Baxtixon Ravshanovna |
| | Raqamli matnlarning lisoniy va pragmatik xususiyatlari 232 Mashrapova Sevara Xabibovna |
| | Extensive Pelvic Ureteral Abnormalities and Reconstructive Operations in Patients 237 Mukhsinov Sardor |
| | Pedagogikada metodlardan foydalanish 241 Maxmudova Nargiz Djumaniyazovna |
| | Diqqat yetishmasligi giperaktivlik buzilishini davolash usullari 245 Otbasarova Umida Mexmonovna, Inogamova Rano Bahodirovna |
| | Talabalaridagi sanogen tafakkurning psixologik xususiyatlarini empirik tadqiq etish masalasi 249 Tulyaganova Dilnoza Ulug'bek qizi |
| | Raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning xorijiy va milliy tajribasini qiyosiy tahlil qilish 253 Abdullayev Sherzodbek |
| | Context, Intention, and Meaning in English Language Teaching: Developing Pragmatic Awareness in Learners of English as a Foreign Language 256 Keldiyarova Shakhriyoda, Keldiyarova Mohlaroyim |
| | Maktabgacha yoshdagi bolalarni steam yondashuvi yordamida og'zaki muloqotga o'rgatish mashqlar tizimi 267 Yunusova Malika Miralimovna |
| | Культурные и исторические коды франции в автобиографической прозе марселя паньоля 270 Рахманкулова Дилафруз Азимовна |
| | Трансформация роли преподавателя в условиях цифровизации высшего образования 274 Рахматова Нигина Ислумовна |
| | Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy san'atning tutgan o'rni 278 Sultonova Marxabo |
| | Boshlang'ich sinf matematika darslarida matematik tasavvurlarni shakllantirish metodikasi 283 Akramova Fotimabonu Kurbonovna |
| | Boshlang'ich sinflarda matematika fanini o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari 288 Axmedov Muslimjon Usmonovich |
| | Boshlang'ich ta'limda musiqa ta'limini sun'iy intellekt va shaxsga yo'naltirilgan pedagogika asosida tashkil etishning ilmiy-metodik asoslari 295 Djumabayeva Muqaddas |



| | |
|---|-----|
| “Suvning agregat holatlari va tabiatda aylanishi” mavzusini o‘rgatishda 4K ko‘nikmasini rivojlantirish | 300 |
| <i>Esnazarov Abdiganiy Jamalatdinovich</i> | |
| Raqamli vositalar asosida mexatronika va robototexnika yo‘nalishi talabalarini o‘qitishning pedagogik-psixologik xususiyatlari | 307 |
| <i>Ikromov Muhammad-Anasxon Xakimjon o‘g‘li</i> | |
| Najmiddin Kubroning ilmiy merosi | 311 |
| <i>Jahongir Jumanov</i> | |
| Oliy ta‘lim muassasalarida talabalarda tejamkorlikni shakllantirishning o‘rni..... | 314 |
| <i>Jo‘rayev Alisher Tursinboyevich</i> | |
| Milliy va umuminsoniy qadriyat fenomenining pedagogik tadqiqotlarda o‘rganilishi..... | 318 |
| <i>Jovliyev Jo‘rabek Alisher o‘g‘li</i> | |
| Jazo muddatini o‘tayotgan shaxslarda emotsional buzilishlarning ijtimoiy-psixologik sabablari | 322 |
| <i>Manzitov Baxtiyor Tolibovich</i> | |
| Maktabgacha ta‘lim jarayonida o‘yin texnologiyalarini qo‘llashning pedagogik asoslari va samaradorligi | 329 |
| <i>Nyutnova Xilola Lochinbekovna, Mayliyeva Nasiba Axmedovna</i> | |
| Ta‘lim menejmentida Predictive Analytics texnologiyalaridan foydalanish istiqbollari | 332 |
| <i>Primqulova Aziza Mirzaahmad qizi</i> | |
| Yosh sportchilarda tezlik-kuch sifatlarini rivojlantirish usullari | 337 |
| <i>Chariyev Ulug‘bek Abdujabbarovich, Radjabov Jaxongir Furkatovich</i> | |
| Z avlod psixologik xususiyatlariga mos zamonaviy tarbiya texnologiyalari | 342 |
| <i>Ravshanov Sanjar Tolibjonovich</i> | |
| Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasida refleksiya mexanizmining o‘rni | 346 |
| <i>Raxmonova Mahfuzaxon Xasan qizi</i> | |
| Iqtisodiy o‘shishning mohiyati | 350 |
| <i>Sayfiddinova Sabina Muhiddinovna</i> | |
| Dasturlash ko‘nikmalarini baholashda generativ sun‘iy intellekt va gamifikatsiya integratsiyalashgan arxitektura modelini ishlab chiqish..... | 353 |
| <i>Sultanov Ravshonbek Otonazarovich</i> | |
| Ta‘lim klasteri sharoitida talabalarning loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirishning zaruriyati | 356 |
| <i>Sultanova Dilnura Abdurashidovna</i> | |
| Stereometriya darslarida o‘quvchilarning fazoviy tasavvurini va tasvirlash savodxonligini 3D modellashtirish vositasida rivojlantirish | 359 |
| <i>Sultonova Shahnoza Yusuf qizi, Sultonova Dilrabo Yusuf qizi</i> | |
| Chayon zahrlining biologik xususiyatlari, toksikologik ta‘siri va biotexnologiyadagi istiqbolli qo‘llanilishi..... | 365 |
| <i>To‘xtamurodova Feruza</i> | |
| Sun‘iy intellekt va raqamli ta‘lim texnologiyalari integratsiyasi asosida oliy ta‘limda fizika fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish..... | 369 |
| <i>Usubjonova Durdona Fazliddin qizi</i> | |
| Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida ta‘lim va tarbiya maqsadlarini o‘yin mexanikasiga integratsiya qilishning interaktiv modulli texnologiyalarini takomillashtirish | 373 |
| <i>Xolmatova Dilshoda Sherali qizi</i> | |
| Особенности формирования совместной познавательной деятельности в образовательном процессе..... | 378 |
| <i>Абдрахманова А. С.</i> | |
| Влияние корпоративной культуры вуза на формирование профессиональных ценностей студенческой молодежи..... | 383 |
| <i>Бекбаев Рауф Рустамович</i> | |
| MTMgacha katta yoshdagi bolalarda ijtimoiy-hissiy munosabatlarni shakllantirish imkoniyatlari..... | 389 |
| <i>Boymurodova Surayyo Eshqvat qizi</i> | |
| Musiqa madaniyati asosida deviant xulqli o‘quvchilar bilan ishlashning pedagogik modeli va samaradorligi | 393 |
| <i>Jabborova Muattar Xatamovna</i> | |



| | |
|---|-----|
| Uzluksiz ta'lim tizimida biologiya fani o'qituvchilarining kompetentligini rivojlantirish..... | 398 |
| Mamadaliyeva Barnoxon O'ktamovna | |
| Focusing on the Practical and Technical Aspects of Dutar Performance and Enhancing this Process..... | 403 |
| Muyassarxon Adiljanovna Achildieva, Shodiyeva Shahinabonu Shoirjon qizi | |
| Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining professional kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi | 409 |
| Olloberganova Fazilat Tangriberganovna | |
| Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining vizual kompetensiyalarini rivojlantirishda dizayn tafakkuriga asoslangan pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish | 415 |
| Shomurodov Oybek Norqulovich | |
| Ta'lim jarayonida o'quvchilarda empatiyani rivojlantirishning neyropedagogik texnologiyalari..... | 421 |
| Kamaladin Kuronboyevich Matyaqubov | |
| Talabalarda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari va uning ta'lim sifatiga ta'siri..... | 425 |
| Rahimova Nazokatxon Kasimjonovna | |
| Talabalar iqtisodiy xulq-atvorining ijtimoiy-psixologik determinantlari: gender tahlili | 431 |
| Yuldosheva Gavhar O'tkirovna | |

O'QUVCHILARDA EMOTSIONAL INTELLEKTNI SHAKLLANTIRISHNING INNOVATSION METODLARI VA DIAGNOSTIKASI

Kamaladin Kuronboyevich Matyaqubov

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Texnologik ta'lim kafedrası dotsenti
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'quvchilarda emotsional intellektni shakllantirishning innovatsion metodlari va diagnostikasi pedagogik-psixologik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Unda emotsional intellektning o'zini anglash, hissiyotlarni boshqarish, empatiya, ijtimoiy moslashuv va konstruktiv muloqot kabi tarkibiy qismlari yoritiladi. Shuningdek, rolli o'yinlar, keys-stadi, trening mashg'ulotlari, art-pedagogik topshiriqlar, refleksiv suhbatlar va "Hissiyot kundaligi" kabi metodlarning o'quvchilar shaxsiy rivojlanishiga ta'siri asoslanadi. Maqolada emotsional intellektni baholashda test, kuzatuv, suhbat, o'zini o'zi baholash va refleksiv yozuvlardan kompleks foydalanish zarurligi ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: emotsional intellekt, innovatsion metodlar, diagnostika, empatiya, refleksiya, o'zini anglash, hissiyotlarni boshqarish, ijtimoiy moslashuv.

Abstract: This article analyzes innovative methods for developing students' emotional intelligence and its diagnosis from a pedagogical and psychological perspective. It reveals such components of emotional intelligence as self-awareness, emotion regulation, empathy, social adaptation, and constructive communication. The article also substantiates the influence of role-playing, case studies, training activities, art-pedagogical tasks, reflective conversations, and an "emotion diary" on students' personal development. It emphasizes the need for a comprehensive use of tests, observation, interviews, self-assessment, and reflective notes in evaluating students' emotional intelligence.

Key words: emotional intelligence, innovative methods, diagnosis, empathy, reflection, self-awareness, emotion regulation, social adaptation.

Аннотация: В данной статье анализируются инновационные методы формирования эмоционального интеллекта у учащихся и его диагностика с педагогико-психологической точки зрения. Раскрываются такие компоненты эмоционального интеллекта, как самосознание, управление эмоциями, эмпатия, социальная адаптация и конструктивное общение. Также обосновывается влияние ролевых игр, кейс-стади, тренинговых занятий, арт-педагогических заданий, рефлексивных бесед и "дневника эмоций" на личностное развитие учащихся. В статье показана необходимость комплексного использования тестов, наблюдения, беседы, самооценки и рефлексивных записей при оценке эмоционального интеллекта.

Ключевые слова: эмоциональный интеллект, инновационные методы, диагностика, эмпатия, рефлексия, самосознание, управление эмоциями, социальная адаптация.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning faqat bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish yetarli emas, balki ularning emotsional barqarorligi, o'zini anglash, boshqalar holatini tushunish, muloqotda muvozanatni saqlash hamda ijtimoiy vaziyatlarga moslashish qobiliyatlarini shakllantirish ham muhim pedagogik vazifaga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan emotsional intellekt tushunchasi umumiy o'rta ta'lim va pedagogik oliy ta'lim tizimi uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Emotsional intellekt o'quvchining o'z hissiyotlarini anglash, ularni boshqarish, ijobiy motivatsiyani saqlash, sinfdoshlari va o'qituvchilar bilan samarali munosabat o'rnatish qobiliyatlari majmuasi sifatida talqin qilinadi^[1].

Bugungi kunda ta'lim muhitida o'quvchilarning stress, xavotir, o'ziga ishonchsizlik, muloqotdagi qiyinchiliklar, nizoli vaziyatlarni hal eta olmaslik kabi muammolari ko'p uchramoqda. Bunday holatlar o'quv faoliyati samaradorligiga, shaxsiy rivojlanishga va ijtimoiy moslashuvga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli emotsional intellektni shakllantirishga qaratilgan innovatsion metodlarni ishlab chiqish va ularni diagnostik mezonlar asosida baholash dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi^[2].



Innovatsion yondashuvlar emotsional intellektni rivojlantirishda interfaol mashg'ulotlar, reflektiv topshiriqlar, rolli o'yinlar, art-terapiya elementlari, keys-stadi, trening texnologiyalari, raqamli psixopedagogik vositalar va hamkorlikka asoslangan ta'lim metodlaridan foydalanishni nazarda tutadi. Bu metodlar o'quvchining ichki kechinmalarini anglash, ijobiy muloqot madaniyatini shakllantirish, empatiya va o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi^[3].

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, emotsional intellekt o'quvchining nafaqat ta'limdagi muvaffaqiyati, balki kelajakdagi kasbiy va ijtimoiy hayotga tayyorgarligi bilan ham uzviy bog'liqdir. Pedagogik oliy ta'lim muassasalari uchun bu masala bo'lajak o'qituvchilarni emotsional jihatdan sog'lom, kommunikativ faol va reflektiv fikrlovchi shaxslarni tarbiyalashga tayyorlash nuqtai nazaridan muhimdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mavzu bo'yicha foydalanilgan adabiyotlar tahlili emotsional intellektni shakllantirish masalasi pedagogika, psixologiya va ta'lim menejmenti bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O'RQ-637-son¹ "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son² "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son³ "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida ta'lim sifatini oshirish, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni kuchaytirish hamda o'quvchilarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Musurmonova, Mavlonova, Xodjaye, Yo'ldoshev va Usmonov asarlarida pedagogik texnologiyalar, o'qituvchi mahorati, tarbiyaviy jarayonni tashkil etish va innovatsion metodlardan foydalanishning nazariy asoslari yoritilgan^[4].

G'oziyev, Davletshin, Karimova, Nishonova, Alimova va Qodirov tadqiqotlarida shaxs psixologiyasi, yosh davrlari, ijtimoiy munosabatlar, bolalar rivojlanishi va diagnostika masalalari keng tahlil qilingan bo'lib, ular emotsional intellektni baholash mezonlarini ishlab chiqishda muhim metodologik manba bo'lib xizmat qiladi. Goleman, Mayer, Salovey va Bar-On ishlarida emotsional intellektning mohiyati, tarkibiy qismlari, hissiyotlarni anglash, boshqarish, empatiya va ijtimoiy moslashuv bilan bog'liq nazariy yondashuvlar asoslangan^[5–6].

Petrides, Brackett, Rivers, Salovey hamda Durlak va hammualliflar tadqiqotlari esa ijtimoiy-emotsional ta'lim dasturlarining o'quvchilarning akademik muvaffaqiyati, muloqot madaniyati va psixologik barqarorligiga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. CASEL materiallari emotsional intellektni maktab miqyosida tizimli shakllantirishga amaliy yo'nalish beradi^[7].

TADVIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda o'quvchilarda emotsional intellektni shakllantirishning innovatsion metodlarini aniqlash, ularni ta'lim jarayoniga moslashtirish va diagnostik baholash imkoniyatlarini asoslashga yo'naltirilgan kompleks pedagogik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot metodologiyasi emotsional intellektning kognitiv, emotsional, kommunikativ va reflektiv tarkibiy qismlarini o'zaro bog'liq holda o'rganishga asoslandi. Bunda o'quvchilarning o'z hissiyotlarini anglash, hissiy holatini boshqarish, boshqalarning emotsional kechinmalarini tushunish, nizoli vaziyatlarda muvozanatli qaror qabul qilish hamda ijtimoiy munosabatlarda moslashuvchanlik ko'rsatish darajalari asosiy mezon sifatida belgilandi^[8].

Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, pedagogik kuzatuv, suhbat, anketa, diagnostik test, reflektiv yozuvlar tahlili, trening mashg'ulotlarini modellashtirish va tajriba-sinov metodlaridan foydalanildi. Nazariy tahlil orqali emotsional intellektga oid psixologik-pedagogik qarashlar, zamonaviy ta'lim konsepsiyalari va innovatsion metodik yondashuvlar o'rganildi. Pedagogik kuzatuv yordamida o'quvchilarning dars jarayonidagi emotsional reaksiyalari, muloqot uslubi, hamkorlikdagi faolligi va o'zini tutish xususiyatlari aniqlab borildi.

Innovatsion metodlar sifatida rolli o'yinlar, emotsional vaziyatlarni tahlil qilish, keys-stadi, "Hissiyot kundaligi", reflektiv suhbat, guruhviy trening, art-pedagogik mashqlar, drammatizatsiya, muammoli vaziyatlar asosida muloqot qilish va raqamli interfaol topshiriqlardan foydalanildi. Ushbu metodlar o'quvchilarda o'z kechinmalarini ifodalash, salbiy hissiyotlarni ijobiy faoliyatga yo'naltirish, empatiya, tinglash madaniyati va konstruktiv muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratildi^[9].

Diagnostika jarayonida emotsional intellektning past, o'rta va yuqori darajalari ajratildi. Past daraja o'quvchining hissiyotlarini anglash va boshqarishda qiynalishi bilan, o'rta daraja ayrim vaziyatlarda emotsional muvozanatni saqlay olishi bilan, yuqori daraja esa o'zini nazorat qilish, empatiya va ijtimoiy moslashuvchanlikning barqaror namoyon bo'lishi bilan tavsiflandi. Olingan natijalar sifat va miqdoriy tahlil asosida umumlashtirildi^[1].

1 <https://lex.uz/docs/-5013007>

2 <https://lex.uz/docs/-4545884>

3 lex.uz/docs/-5841063

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida o'quvchilarda emotsional intellektni shakllantirishga qaratilgan innovatsion metodlardan foydalanish ta'lim muhitining psixologik-pedagogik sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Dastlabki kuzatuv va diagnostik baholash natijalariga ko'ra, ko'plab o'quvchilarda o'z hissiyotlarini aniq nomlash, ularni boshqarish, nizoli vaziyatlarda bosqikli saqlash va sinfdoshlarining emotsional holatini tushunish ko'nikmalari yetarli darajada shakllanmagani kuzatildi. Ayniqsa, muloqot jarayonida tez ranjish, fikrini agressiv yoki tortinchoq tarzda ifodalash, o'z xatosini tan olishda qiynalish, tanqidni to'g'ri qabul qila olmaslik kabi holatlar emotsional intellekt rivojlanishining past yoki o'rta darajasi bilan bog'liq ekani aniqlandi [11].

Innovatsion metodlar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlardan so'ng o'quvchilarning emotsional faolligi, o'zini anglash darajasi va muloqot madaniyatida sezilarli o'zgarishlar namoyon bo'ldi. "Hissiyot kundaligi" orqali o'quvchilar o'z kayfiyati, xursandchilik, qo'rquv, xavotir, g'azab va ishonch kabi holatlarni tahlil qilishga odatlandi. Rolli o'yinlar va keys-stadi mashqlari esa ularning turli ijtimoiy vaziyatlarga nisbatan moslashuvchan munosabat bildirish, boshqa shaxs nuqta nazarini tushunish va muammoga bir tomonlama emas, balki ko'p qirrali yondashish ko'nikmalarini rivojlantirdi [12].

Natijalar shuni ko'rsatdiki, emotsional intellektni shakllantirishda faqat tushuntirish yoki nazariy suhbat yetarli emas. O'quvchi emotsional vaziyatni amaliy boshdan kechirishi, uni tahlil qilishi, o'z munosabatini qayta baholashi va guruh muhokamada ishtirok etishi zarur. Trening mashg'ulotlari jarayonida o'quvchilarning empatiya, o'zini nazorat qilish, tinglash madaniyati va hamkorlikda ishlashga tayyorligi oshdi [13].

Diagnostik tahlil emotsional intellektning rivojlanishida refleksiv topshiriqlar, art-pedagogik mashqlar va guruh muhokamalar eng samarali metodlar qatoriga kirishini ko'rsatdi. Yuqori darajaga ega o'quvchilar o'z hissiyotlarini izohlash, nizoli tinch yo'l bilan hal qilish, boshqalarning kayfiyatini sezish va o'z xatti-harakatiga tanqidiy baho berishda faolroq bo'ldi. O'rta darajadagi o'quvchilarda esa ijobiy siljishlar mavjud bo'lsa-da, ularga barqaror pedagogik qo'llab-quvvatlash zarurligi aniqlandi [14].

O'quvchilarda emotsional intellektni shakllantirish masalasi ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni kuchaytirish bilan bevosita bog'liqdir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'quvchining bilim olishga bo'lgan munosabati, sinf jamoasidagi faolligi, o'qituvchi bilan muloqoti va o'zini namoyon etish darajasi ko'p jihatdan uning emotsional holatini anglash va boshqarish qobiliyatiga tayanadi. Shu sababli emotsional intellektni rivojlantirish alohida tarbiyaviy tadbir sifatida emas, balki dars, sinfdan tashqari faoliyat va psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimining uzviy qismi sifatida tashkil etilishi lozim [15].

Innovatsion metodlarning samaradorligi ularning o'quvchini faol ishtirokchi sifatida jalb qilishi bilan izohlanadi. An'anaviy tushuntirishga asoslangan yondashuvda o'quvchi hissiyot haqida ma'lumot oladi, biroq uni real vaziyatda qo'llash imkoniyati cheklangan bo'ladi. Rolli o'yinlar, treninglar, keys-stadi, art-pedagogik mashqlar va refleksiv kundaliklar esa o'quvchiga o'z kechinmalarini amaliy anglash, ifodalash va qayta baholash imkonini beradi. Bunday metodlar orqali o'quvchi o'zining ichki holatini tahlil qilishni, boshqalarning fikri va kayfiyatini inobatga olishni, tanqidiy vaziyatlarda emotsional muvozanatni saqlashni o'rganadi [16].

Muhokama jarayonida yana bir muhim jihat shuki, emotsional intellekt diagnostikasi faqat test natijalari bilan chegaralanmasligi kerak. Chunki o'quvchining emotsional rivojlanishi murakkab va dinamik jarayon bo'lib, u turli vaziyatlarda turlicha namoyon bo'lishi mumkin. Shu bois diagnostikada kuzatuv, suhbat, o'zini o'zi baholash, tengdoshlar fikri, o'qituvchi tavsifi va amaliy topshiriqlar natijalarini uyg'unlashtirish maqsadga muvofiqdir. Bu yondashuv o'quvchining emotsional intellekt darajasini yanada xolis baholashga xizmat qiladi [17].

Pedagogik oliy ta'lim muassasalari uchun mazkur masalaning ahamiyati yanada kengroqdir. Bo'lajak o'qituvchilar emotsional intellektni shakllantirish metodlarini bilishi, o'quvchilarning hissiy holatini sezishi, sinfda sog'lom psixologik muhit yaratishi va nizoli vaziyatlarni pedagogik madaniyat asosida boshqarishi zarur. Shu jihatdan emotsional intellektni rivojlantirish bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida qaralishi kerak [18].

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'quvchilarda emotsional intellektni shakllantirish zamonaviy ta'lim jarayonining muhim pedagogik yo'nalishlaridan biridir. Chunki o'quvchining o'z hissiyotlarini anglash, boshqarish, boshqalarning holatini tushunish, muloqotda muvozanatni saqlash va ijtimoiy vaziyatlarga moslashish qobiliyati uning shaxsiy kamoloti hamda o'quv faoliyatidagi muvaffaqiyati bilan bevosita bog'liqdir. Tadqiqot natijalari emotsional intellektni rivojlantirish faqat psixologik yordam doirasida emas, balki o'quv-tarbiyaviy jarayonning uzviy tarkibiy qismi sifatida tashkil etilishi lozimligini ko'rsatdi [19].

Innovatsion metodlardan foydalanish o'quvchilarning emotsional faolligini oshirish, ularda o'zini anglash, empatiya, refleksiya, ijobiy muloqot va nizoli vaziyatlarni konstruktiv hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Rolli o'yinlar, keys-stadi, trening mashg'ulotlari, art-pedagogik topshiriqlar, "Hissiyot kundaligi", refleksiv suhbatlar va raqamli interfaol vositalar o'quvchilarni faol ishtirokchi sifatida jalb etadi. Bunday metodlar



orqali o'quvchi o'z ichki kechinmalarini ifodalashni, salbiy hissiyotlarni boshqarishni, boshqa shaxslarning nuqtai nazarini tushunishni va o'z xatti-harakatlariga tanqidiy baho berishni o'rganadi ^[20].

Emotsional intellekt diagnostikasida bir tomonlama baholashdan voz kechish zarur. Testlar, kuzatuv, suhbat, o'zini o'zi baholash, refleksiv yozuvlar va amaliy vaziyatlarni tahlil qilish natijalari uyg'unlashtirilganda o'quvchining emotsional rivojlanish darajasini xolisroq aniqlash mumkin. Past, o'rta va yuqori darajalarni belgilash esa pedagogga individual yondashuvni tanlash, qo'llab-quvvatlash choralarini ishlab chiqish va rivojlanish dinamikasini kuzatish imkonini beradi.

Pedagogik oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni emotsional intellektni shakllantirish metodlari bilan qurollantirish alohida ahamiyatga ega. Chunki o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki sinfda sog'lom psixologik muhit yaratuvchi, o'quvchi shaxsini qo'llab-quvvatlovchi va emotsional tarbiyani boshqaruvchi pedagogik subyektdir. Shu bois emotsional intellektni rivojlantirishga yo'naltirilgan innovatsion metodlar ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvini kuchaytirish va barkamol shaxsni tarbiyalashning samarali vositasi sifatida baholanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O'RQ-637-son4 "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni,
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-son5 Farmoni. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. 2019.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son6 Farmoni. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. 2022.
4. Musurmonova, O. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: Fan va texnologiya.
5. Mavlonova, R., To'rayeva, O., & Holiqberdiyev, K. Pedagogika. Toshkent: O'qituvchi.
6. Xodjayev, B. X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: Sano-standart.
7. Yo'ldoshev, J. G., & Usmonov, S. A. Pedagogik texnologiya asoslari. Toshkent: O'qituvchi.
8. G'oziyev, E. G. Umumiy psixologiya. Toshkent: Universitet.
9. Davletshin, M. G. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. Toshkent: O'qituvchi.
10. Karimova, V. M. Ijtimoiy psixologiya. Toshkent: Fan va texnologiya.
11. Nishonova, Z. T., & Alimova, G. K. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi. Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati.
12. Qodirov, B. R. Iste'dod va qobiliyatlar diagnostikasi. Toshkent: Fan.
13. Goleman, D. Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. New York: Bantam Books.
14. Mayer, J. D., & Salovey, P. What is emotional intelligence? In P. Salovey & D. J. Sluyter, Emotional Development and Emotional Intelligence: Educational Implications. New York: Basic Books.
15. Salovey, P., & Mayer, J. D. Emotional intelligence. *Imagination, Cognition and Personality*, 9(3), 185–211.
16. Bar-On, R. The Emotional Quotient Inventory: Technical Manual. Toronto: Multi-Health Systems.
17. Petrides, K. V. Psychometric properties of the Trait Emotional Intelligence Questionnaire. *Advances in the Assessment of Emotional Intelligence*. New York: Springer.
18. Brackett, M. A., Rivers, S. E., & Salovey, P. Emotional intelligence: Implications for personal, social, academic, and workplace success. *Social and Personality Psychology Compass*, 5(1), 88–103.
19. Durlak, J. A., Weissberg, R. P., Dymnicki, A. B., Taylor, R. D., & Schellinger, K. B. The impact of enhancing students' social and emotional learning: A meta-analysis of school-based universal interventions. *Child Development*, 82(1), 405–432.
20. Collaborative for Academic, Social, and Emotional Learning. CASEL Guide to Schoolwide Social and Emotional Learning. Chicago: CASEL.

4 lex.uz/docs/-5013007

5 <https://lex.uz/docs/-4545884>

6 lex.uz/ru/docs/-5841063

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.